

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
323 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolibboyev Samad Tolibboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlar.....	177
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Нematджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari.....	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar.....	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	

XORIY TAJRIBASI ASOSIDA MAMLAKATIMIZDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Shamansurova Zilola Abduvahitovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası professori (PhD)

ORCID № 0009-0009-5152-3518

e-mail: z.shamansurova@tsue.uz

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarb jihatlarini yoritishga hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim muhitiga integratsiyalash masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqotda bir qator xorijiy davlatlarda joriy etilgan moliyaviy savodxonlik dasturlarining mazmuni, metodik yondashuvlari va ularning samaradorlik omillari tahlil qilinadi hamda ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llashning konseptual asoslari o'rganilgan. Maqolada moliyaviy savodxonlikning aholi iqtisodiy farovonligi va barqarorligiga ijobiy ta'siri asoslab berilib, ushbu jarayonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalishda ixtisoslashgan kurs va treninglar tashkil etish, shuningdek, innovatsion texnologiyalar hamda interaktiv o'quv usullaridan samarali foydalanish zarurligi asoslangan. Xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan konseptual takliflar va amaliy tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvlarni shakllantirishda ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy savodxonlik, ta'lim tizimi, maktab ta'limi, iqtisodiy fanlar, moliyaviy ta'lim strategiyasi.

Abstract: This scientific article aims to highlight the current aspects of increasing the level of financial literacy in the general secondary education system of Uzbekistan and to study the issues of studying advanced foreign experiences and integrating them into the national educational environment. The study analyzes the content, methodological approaches and factors of their effectiveness of financial literacy programs implemented in a number of foreign countries, and the conceptual foundations of applying these experiences in the conditions of Uzbekistan are studied. The article substantiates the positive impact of financial literacy on the economic well-being and stability of the population, and emphasizes the importance of cooperation between the public and private sectors in this process, the need to organize specialized courses and trainings in this area in educational institutions, as well as the effective use of innovative technologies and interactive teaching methods. Conceptual proposals and practical recommendations developed on the basis of foreign experience serve as a scientific and practical basis for the formation of systematic approaches aimed at developing financial literacy in the school education system of Uzbekistan.

Keywords: Financial literacy, education system, school education, economic sciences, financial education strategy.

Аннотация: Целью данной научной статьи является освещение современных аспектов повышения уровня финансовой грамотности в системе общего среднего образования Узбекистана, а также изучение передового зарубежного опыта и его интеграция в национальную образовательную среду. В исследовании анализируются содержание, методические подходы и факторы эффективности программ повышения финансовой грамотности, реализуемых в ряде зарубежных стран, а также изучаются концептуальные основы применения этого опыта в Узбекистане. В статье обосновывается положительное влияние финансовой грамотности на экономическое благосостояние и стабильность населения, подчеркивается важность сотрудничества государственного и частного секторов в этом процессе, необходимость организации специализированных курсов и тренингов по данному направлению в учебных заведениях, а также эффективное использование инновационных технологий и интерактивных методов обучения. Разработанные на основе зарубежного опыта концептуальные предложения и практические рекомендации служат научно-практической основой для формирования системных подходов, направленных на развитие финансовой грамотности в системе школьного образования Узбекистана.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, система образования, школьное образование, экономические науки, стратегия финансового образования.



KIRISH

Moliyaviy savodxonlik bugungi kunda ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'plab rivojlangan va yuqori iqtisodiy o'sishga erishayotgan mamlakatlar maktab ta'limi dasturlariga tizimli ravishda integratsiyalashmoqda. Shu boisdan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarga moliyaviy bilim va ko'nikmalarni erta bosqichlarda singdirish zarurati kun tartibiga chiqmoqda. Bunda shaxsiy budjetni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish, investitsiyalar, sug'urta va boshqa moliyaviy vositalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalarning berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning o'z moliyaviy hayotida ongli va samarali qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma, munosabat va xatti-harakatlar majmuidir. U yakuniy maqsad emas, balki barqaror individual moliyaviy farovonlikka erishishning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy savodxonlik hozirgi kunda global iqtisodiy barqarorlik va farovonlikka erishishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni egallaganlik darajasi. A.Lusardi va O.Mitchell [1] tadqiqotlari moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy ahamiyatini o'rganib, uning shaxsiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholab ko'rsatdi. A.Atkinson va F.Messy [2] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa OECD/INFE (International Network on Financial Education) dasturi doirasida moliyaviy savodxonlikni baholash natijalarini taqdim etdi va moliyaviy bilimlarning aholi farovonligiga ta'sirini tahlil qilgan.

Moliyaviy savodxonlikni o'quv dasturlariga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. OECD [3] moliyaviy savodxonlik ta'limini maktab dasturlariga kiritish usullari haqida ma'lumot beradi va bu jarayonning turli mamlakatlarda qanday amalga oshirilishini tahlil qilgan. L.Mandell [4] o'z tadqiqotlarida AQSh maktablarida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etishni tavsiya etgan.

Ko'plab rivojlangan davlatlar turli ijtimoiy qatlamlar va ta'lim bosqichlarida moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun milliy strategiyalarni ishlab chiqqan. Masalan, AQShda FINRA Investor Education Foundation tomonidan olib borilayotgan Milliy Moliyaviy Qobiliyat Tadqiqoti (NFCS) moliyaviy bilimlarning odamlarning kundalik moliyaviy xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganishga xizmat qiladi [4]. Avstraliyada esa moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy strategiya bolalikdan boshlab maktab dasturlariga moliyaviy ta'limni kiritishni o'z ichiga oladi [5].

Kanada va Yaponiya davlatlarining moliyaviy savodxonlik ta'limidagi tajribalari bu borada yaxshi natijalar ko'rsatgan. OECD [6] va APEC [7] hisobotlari ushbu mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun qabul qilingan strategiyalar va dasturlarni batafsil o'rganilgan. Kanadada moliyaviy savodxonlik dasturlari maktabgacha ta'limdan boshlab, bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, Yaponiyada qisqa muddat ichida moliyaviy ta'lim berish samaradorligi oshirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu borada infratuzilmaning cheklanganligi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining pastligi va boshlang'ich bilim darajasining pastligi kabi muammolar mavjud. Biroq, ayrim mamlakatlar xorijiy modellardan ilhomlanib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirib, ijobiy natijalarga erishgan. Masalan, Braziliyada maktablarda OECD tavsiyalariga asoslangan moliyaviy ta'lim dasturlari joriy etilgan. Hindiston esa Markaziy banki orqali qishloq aholisi orasida moliyaviy savodxonlik va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda[8].

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning hozirgi holati, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi va Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beradi. World Bank [9] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa O'zbekistonda moliyaviy ko'nikmalarni oshirish uchun taklif qilingan strategiyalarni batafsil bayon etgan

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalar va yondashuvlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni va interaktiv usullarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi. A.Lusardi va boshqalar [10] tadqiqotlarida moliyaviy bilimlarning ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashdagi o'rni ko'rsatilgan bo'lib, ushbu bilimlarni oshirish orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish mumkinligi ta'kidlangan.

Moliyaviy savodxonlikka oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bilimlar va ko'nikmalarni oshirish shaxsiy va ijtimoiy farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va interaktiv usullarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz maktab o'quvchilarini turli o'yinlar orqali moliyaviy bilimlarni o'rgatish orqali moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha ilg'or xorij tajribalari o'rganamiz. Bu borada ulkan tarixiy tajribaga ega bo'lgan Buyuk Britaniya va Yaponiya davlatlarining pedagogik tajribalari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Maktab o'quvchilari doirasida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda Buyuk Britaniya va Yaponiya ta'lim tajribasini o'rganish uchun bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, Buyuk Britaniya ham kattalar ham yoshlar moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha jahon mamlakatlari o'rtasida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Bu borada Kanadaning uzoq yillik tarixiy tajribasi katta va shu sababli bu tajribani mukammal o'rgangan holda O'zbekiston uchun mos keladigan qismlarini tanlab olish va amaliyotga joriy etish istiqbolda yoshlar o'rtasida moliyaviy ta'limni targ'ib qilishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, Yaponiyaning bugungi global taraqqiyotiga asosiy sabab ta'lim ekanligi barchaga ma'lum. Lekin shunday bo'lsa-da, Yaponiya maktab ta'limida moliyaviy savodxonlik ta'limini berib boshlaganiga 2-3 yil bo'lmoqda. Qisqa davr davomida mamlakat bu borada ma'lum bir ijobiy natijalarga erishmoqda. Yaponiya maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlik ta'limini berish tajribasini o'rganish orqali maktablarda moliyaviy savodxonlik ta'limini berishni nimadan boshlash kerakligini va qisqa vaqtda qanday qilib yaxshi natijalarga erishish mumkinligini o'rganishimiz mumkin. Albatta, bu O'zbekiston maktablarida boshlang'ich va o'rta sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga moliyaviy ta'lim berish jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish uchun xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yigirma yillikda Buyuk Britaniyada moliyaviy savodxonlik shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma sifatida e'tirof etildi. Aholida qarz yukini ortishi, past jamg'arma darajasi va noto'g'ri moliyaviy qarorlar kabi muammolar fonida hukumat va nodavlat tashkilotlar moliyaviy ta'limni maktab o'quv dasturiga integratsiyalash bo'yicha bir qator tashabbuslarni amalga oshirdi.

2014-yilda muhim qadam sifatida moliyaviy ta'lim Angliyadagi o'rta maktablar uchun majburiy fan sifatida maktab fanlari qatoridan joy oldi. Yangilangan fuqarolik va matematika fanlari dasturiga asosan, 11–16 yoshli o'quvchilar pulni boshqarish, kredit va qarz tushunchalari, moliyaviy risklar va iqtisodiyotda pulning o'rni haqida bilimlarni egallashi zarur [11]. Biroq, moliyaviy ta'lim boshlang'ich maktablarda majburiy emas, va Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada ham umumiy tartibda joriy etilmagan – bu hududlarda maktablar bunday ta'limni ixtiyoriy asosda tashkil etilishi belgilangan.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bir qancha nodavlat tashkilotlar moliyaviy ta'limni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Money and Pensions Service (MaPS) [12] tomonidan ishlab chiqilgan 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Moliyaviy farovonlik strategiyasi doirasida 2030-yilgacha yana 2 million bola va o'smirlarga sifatli moliyaviy ta'lim berish maqsad qilingan. Shuningdek, Young Enterprise xayriya tashkiloti tomonidan har yili o'tkaziladigan "My Money Week" [13] kabi dasturlar orqali o'quvchilarga amaliy moliyaviy ko'nikmalar o'rgatiladi.

Moliyaviy ta'lim bo'yicha Parlamentaro ishchi guruh (APPG) tadqiqotlariga ko'ra, qonuniy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, ularning amaldagi joriy etilishi bir xil darajada emas. Maktablarda



malakali o'qituvchilar yetishmaydi, o'quv dasturlarida vaqt ajratilmaydi, hamda zarur o'quv resurslari cheklangan [14]. Bu esa moliyaviy ta'limni joriy etishda o'qituvchilarni tayyorlash, standart materiallar yaratish va davlat–xususiy sektor sherikchiligi muhimligini ko'rsatadi.

Cambridge universiteti [15] olib borgan tadqiqotda bolalar 7 yoshga kelib moliyaviy odatlarni shakllantirishi aniqlangan. Bu esa moliyaviy ta'limni erta yoshdan boshlash lozimligini yana bir bor isbotlaydi.

So'nggi yillarda raqamli o'quv vositalari va o'yinlashtirilgan (gamifikatsiya) platformalar maktabdagi darslarga samarali qo'shimcha sifatida paydo bo'lmoqda. Masalan, NatWest'ning [16] "MoneySense" va Barclays'ning [17] "LifeSkills" loyihalari orqali o'quvchilar, o'qituvchilar va otionalarga mo'ljallangan bepul interaktiv materiallar taqdim etilmoqda.

Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy ta'limni maktab dasturiga kiritish muhim qadamlardan biridir. Biroq, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi moliyaviy mablag', o'qituvchi tayyorgarligi va qiziqarli o'quv vositalariga bog'liq. So'nggi yillarda ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, moliyaviy savodxonlikni barcha yoshlar uchun hayotiy ko'nikmaga aylantirish uchun doimiy investitsiya va keng ko'lamlı hamkorlik talab etiladi.

Yaponiya ta'lim tizimining rivojlanishi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 8-o'rinda turadigan davlat hisoblanadi. Yaponiyada 2022-yili voyaga yetganlik yoshi 20 yoshdan 18 yoshga tushirilishi bilan maktablarda moliyaviy savodxonlik darslarini majburiy etib belgilandi.

Yaponiya maktablarida moliyaviy savodxonlik muhim ko'nikma hisoblanadi va so'ngi yillarda bunga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yaponiya Banki 2017-yilda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash uchun 18-79 yosh oralig'idagi 25 000 nafar aholidan so'rovnoma o'tkazdi. Bu so'rov natijalariga ko'ra, ta'lim darajasi, daromad, yosh va kasbiy holat moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash uchun muhim faktorlar hisoblanadi [11]. Yaponiyada 2022-yilda olib borilgan tadqiqotlar doirasida o'tkazilgan so'rovnomada ma'lum bo'lishicha, Yaponiya aholining 36% foiz stavkalari, inflyatsiya va risklarni diversifikatsiya qilish tushunchalari bo'yicha ma'lum bilimlarga ega ekan. Bu natijaga asosan tadqiqotchi olimlar guruhi Yaponiyada moliyaviy savodxonlik darajasi past degan xulosaga kelishgan [12]. Yaponiyaning markaziy va mahalliy hukumatlari moliya institutlari bilan hamkorlikda moliyaviy ta'limni iste'molchilar ta'limini asosiy tamoyiliga aylantirish orqali maktab yoshdagi bolalardan tortib katta yoshdagi aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni yaxshilash uchun strategiya ishlab chiqilgan.

Yapon xalqida riskli aktivlarga investitsiya kiritish orqali boylik orttirishdan ko'ra, mehnat bilan topilgan pulni jamg'arma sifatida saqlash an'anaviy fazilat sanaladi. Yaponiya banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil mart oyida yaponiyaliklar egalik qilgan moliyaviy aktivlarning 54,3 foizini naqd pul va depozitlar tashkil etgan, bu ko'rsatkich AQShda 13,7 foiz va Yevropada 34,5 foizni tashkil qilgan¹. Hukumat kelajakda iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan investitsiya resurslarini aholi qo'lidagi jamg'armalar evaziga qoplash va aholini investitsiyalarga jamg'armalarini yo'naltirish orqali moliyaviy farovonlikka erishishi uchun aholining moliyaviy savodxonlik darajasini maktab yoshdan oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Ko'plab yapon banklari, yirik kompaniyalar va moliya institutlari barcha yoshdagi aholining, xususan, maktab yoshdagilarni moliyaviy savodxonligini oshirish uchun o'zlarining dasturlariga ega. Ko'plab maktablar dars jarayonlarini tashkil qilishda mahalliy moliya institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Bu moliyaviy savodxonlikni oshirishda ta'lim bilan amaliyotni integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Undan tashqari, mamlakatda yoshlikdan moliyaviy bilimlarni chuqur o'rgatishga ixtisoslashgan maktab va kollejar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Yapon maktablarida moliyaviy ta'lim turli fanlar dasturlariga integratsiya qilingan. Asosan yapon maktablarida moliyaviy savodxonlik darslari 7-12-sinflarda (Junior high schools (7-9) and High School (10-12)) o'qitiladi. Yaponiyada barcha o'rta maktablarda (junior high schools and high schools) o'quvchilar moliyaviy ta'limni ijtimoiy fanlar, Texnologiyalar va uy-xo'jaligi iqtisodiyoti, Fuqarolik bilimi, Uy-xo'jaliklari iqtisodiyoti, Savdo kabi fanlari doirasida o'rganishadi [13]. Misol uchun, Uy -xo'jaligi iqtisodiyoti (*Kateika*) fani 5 sinfdan 10 yoki 11-sinfgacha bo'lgan barcha sinflar uchun majburiy fan hisoblanadi. Uy xo'jaligi iqtisodiyoti fani oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, oilaviy munosabatlar, bolalar

¹ <https://www.japantimes.co.jp/news/2023/03/19/national/teaching-financial-literacy/>

tarbiyasi, iste'mol, moliyaviy ta'lim va ijtimoiy ta'minot kabi mavzular doirasida tashkillashtiriladi².

Boshlang'ich sinflarda (primary school) esa "Uy qurish kurslari" da o'qitiladi. O'quvchilar kundalik hayotda iste'mol xarajatlarini rejalashtirish va kelajak uchun jamg'armalarini investitsiya qilish kerakligini o'rgatish maqsadida moliyaviy ta'lim "Kundalik hayot rejalari" mavzusida o'qitiladi. Bu o'quvchilarda kundalik hayotlarini samarali boshqarish uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Yapon maktablarida moliyaviy bilimlarni samarali o'rgatish uchun turli interaktiv va innovatsion usullardan foydalaniladi. Xususan, dars va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarga turli o'yinlar orqali moliyaviy savodxonliklarini oshirishga alohida e'tibor beriladi. Ko'plab o'yinlar maktab o'qituvchilari va moliya institutlarining malakali xodimlari hamkorligida ishlab chiqilgan bo'lib, ba'zilar planshet, telefon va kompyuterlar orqali o'ynalsa, ba'zilar turli o'quv materiallari, masalan, kupyuralar, obligatsiyalar va veksellar tasviri tushirilgan kartalar vositasida o'yin tashkillashtiriladi.

Shuningdek, o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirish va chuqurlashtirishda o'qituvchilar uchun banklar, investitsiya kompaniyalari, sug'urta tashkilotlari hamda moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yaratilgan onlayn platformalar va veb-saytlardan foydalanish muhim metodik resurs sifatida qaralmoqda. Mazkur platformalarda yosh toifasiga mos tarzda ishlab chiqilgan interaktiv o'yinlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning moliyaviy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida mavzuga mos o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarda mavzuni chuqurroq anglash, mustaqil fikrlash va moliyaviy qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Bundan tashqari, darsdan bo'sh vaqtlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar ham mavjud bo'lib, ular o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Maktablar amaliyotida keng qo'llanilayotgan interaktiv o'yinlarga *Monopoliya*, *Hayot o'yini*, *Birja o'yinlari*, *Iqtisodiy stol*, *Sinf bozori*, *Moneypal* va *Taberu Kurasu* kabi o'yinlar misol bo'la oladi. Bu o'yinlar moliyaviy tushunchalarni hayotiy kontekstda o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vositadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning mahalliy sharoitga mos bo'lgan modellari asosida amaliyotga tatbiq etilishi strategik ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba tahlili orqali moliyaviy ta'limni samarali yo'lga qo'yish bo'yicha pedagogik yondashuvlar aniqlanib, bu borada ortiqcha moliyaviy resurslar va vaqt sarfini minimallashtirish mumkin bo'ladi. Jahon amaliyotida o'zini oqlagan ta'lim metodlari va interaktiv o'quv texnologiyalarini O'zbekiston maktab tizimiga integratsiyalash, o'quvchilarning moliyaviy savodxonlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy jihatdan ongli, barqaror va farovon fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

- Maktablarda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur. Bu kurslar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

- O'quvchilarga moliyaviy bilimlarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu raqamli moliya ko'nikmalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi.

- Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat va xususiy sektorlar hamkorligini kuchaytirish lozim. Moliyaviy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorlikda turli tadbirlar va musobaqalar tashkil etishi mumkin.

- Maktab o'quv dasturlariga moliyaviy savodxonlikni integratsiya qilish. Bu matematika yoki ijtimoiy fanlar doirasida o'qitilishi mumkin. Shuningdek, turli tadbirlar va "moliyaviy savodxonlik kunlari" tashkil etilishi tavsiya etiladi.

- Moliyaviy ta'lim resurslarini yaratish zarur. Bu kitoblar, darsliklar, onlayn kurslar va turli o'yinlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

- Mazkur tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan kompleks amaliy dasturlarni shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat

2 https://www.fukuoka-edu.ac.jp/english/faculty/training_secondary/home_economics.html



qiladi. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari va pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda moliyaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni samarali shakllantirish imkonini beradi. Ushbu tavsiyalar asosida ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish, o'quv rejalari va mazmunini modernizatsiya qilish, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan choralarni qo'llash O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligiga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*.
2. Atkinson, A., & Messy, F. A. (2012). Measuring Financial Literacy: Results of the OECD / International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study. *OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions*.
3. OECD (2013). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.
4. FINRA Investor Education Foundation (2018). *National Financial Capability Study 2018*. Financial Industry Regulatory Authority.
5. Australian Securities and Investments Commission (ASIC) (2020). *National Financial Capability Strategy 2018–2020*.
6. Mandell, L. (2008). Financial Literacy of High School Students. In *Handbook of Consumer Finance Research*. Springer.
7. OECD (2017). *PISA 2015 Results (Volume IV): Students' Financial Literacy*. OECD Publishing.
8. Reserve Bank of India (RBI) (2019). *Financial Literacy Initiatives in India*. APEC (2019). *Financial Education in Japan: Current State and Challenges*. APEC Policy Support Unit.
9. World Bank (2014). *Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan*. World Bank Report.
10. Lusardi, A., Michaud, P. C., & Mitchell, O. S. (2017). Optimal Financial Knowledge and Wealth Inequality. *Journal of Political Economy*.
11. Department for Education. (2013). *National Curriculum in England: Citizenship programmes of study for key stages 3 and 4*. GOV.UK.
12. Money and Pensions Service (MaPS). (2020). *UK Strategy for Financial Wellbeing: 2020–2030*.
13. Young Enterprise. (2023). *My Money Week*.
14. All-Party Parliamentary Group on Financial Education for Young People. (2016). *Financial Education in Schools: Two Years On – Job Done?* Young Enterprise.
15. University of Cambridge. (2013). *Habit Formation and Learning in Young Children*. Report for Money Advice Service.
16. NatWest Group. (n.d.). *MoneySense: Free Financial Education Programme*.
17. Barclays. (n.d.). *LifeSkills created with Barclays*.
18. Yoshino, Naoyuki Morgan, Peter J. Long, Trinh Q. "Financial Literacy in Japan: Determinants and Impacts", Asian Development Bank Institute, December 2017
19. Andrea Sticha, Shizuka Sekita. "The importance of financial literacy: Evidence from Japan", *Journal of Financial Literacy and Wellbeing*, Volume 1, Issue 2, July 2023, pp. 244 – 262
20. Naoyuki Yoshino, "Financial Education in Japan", Asian Development Bank Institute (ADBI) Senior Advisor Financial Research Institute, FSA
21. <https://www.usnews.com/news/best-countries/rankings/well-developed-public-education-system>
22. <https://www.japantimes.co.jp/news/2023/03/19/national/teaching-financial-literacy/>
23. <https://cbu.uz/uz/about/central-office/divisions/moliyaviy-savodxonlikni-oshirish-va-bank-mutaxassislarini-qayta-tayyorlash-departamenti/>
24. <https://finlit.uz/uz/>

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100